



ANALYSIS OF IRANIAN FOREIGN POLICY: A REVIEW OF THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES

Kamronbek Radjabov

Independent Researcher

Uzbek State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Rational model, Bureaucratic model, Organizational process model, Constructivist approach, Role theory, Discursive analysis.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the foreign policy of the Islamic Republic of Iran through modern theories in the field of international relations. The Rational Model, Bureaucratic Model, Organizational Process Model, Constructivist Approach, Role Theory, and Discursive Analysis were used to explain the policy of the country of Iran. The purpose of the research is to reveal the role and importance of Iran on the world political scene through these models and theories.

ERON TASHQI SIYOSATI TAHLILI: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLAR SHARHI

Kamronbek Radjabov

Mustaqil tadqiqotchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rasional model, Byurokratik model, Tashkiliy jarayon modeli, Konstruktivistik yondashuv, Rol nazariyasi, Diskursiv tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eron Islom Respublikasining tashqi siyosati, xalqaro munosabatlar doirasidagi zamonaviy nazariyalar orqali tahlil qilindi. Eron mamlakatining siyosatini tushuntirib berishda Rasional model, Byurokratik model, Tashkiliy jarayon modeli, Konstruktivistik yondashuv, Rol nazariyasi, Diskursiv tahlillardan foydalanildi. Ushbu modellar va nazariyalar orqali Eronning jahon siyosiy sahnasida tutgan o'рни va ahamiyatini ochib berish, tadqiqot maqsadi sifatida belgilangan.

АНАЛИЗ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ИРАНА: ОБЗОР ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Камронбек Раджабов

Независимый исследователь

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Рациональная модель, бюрократическая модель, модель организационных процессов, конструктивистский подход, теория ролей, дискурсивный анализ.	Аннотация: В данной статье анализируется внешняя политика Исламской Республики Иран с помощью современных теорий в области международных отношений. Для объяснения политики Ирана использованы рациональная модель, бюрократическая модель, модель организационных процессов, конструктивистский подход, теория ролей и дискурсивный анализ. Цель исследования – выявить роль и значение Ирана на мировой политической арене с помощью этих моделей и теорий.
--	---

Kirish. Har qanday davlatning tashqi siyosatini tahlil qilish an'anaviy tarzda bir necha raqobatdosh nazariy va metodologik modellarga tayanadi[1]. Eron tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun tashqi siyosatni tahlil qilishdagi quyidagi asosiy yondashuvlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq: rasional model[2], byurokratik model[3], tashkiliy jarayon modeli[4], konstruktiv yondashuv[5], rol nazariyasi[6] va diskursiv tahlil[7]; biroq Eron tashqi siyosatini tahlil qilishda bu modellarga tanqidiy yondashish maqsadga muvofiq. Bu modellar siyosiy akt ishtirokchilari (aktorlar)ning tabiati, qaror qabul qilish jarayoni va mafkuraning ta'siri borasida o'zaro farq qiladi, bu esa, Eron Islom Respublikasiga nisbatan ularni qo'llashning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Rasional model. Rasional yondashuv davlat o'zining milliy manfaatlarini maksimal darajada qondirishga intilayotgan yagona rasional aktor sifatida namoyon bo'lishini taqozo etadi[8]. Bunday model doirasida tashqi siyosat bo'yicha qabul qilingan qarorlar oqilona tanlov natijasi sifatida taqdim etiladi: rahbarlar muammoni aniqlaydi, kerakli natijalarni shakllantiradi, mumkin bo'lgan harakat yo'nalishlarini baholaydi va davlatga eng katta foyda keltiradigan optimal variantni tanlaydi. Ushbu model qaror qabul qiluvchilar to'liq ma'lumotga ega va muqobil harakatlarda ketadigan xarajatlar va foydalarini o'lchashga qodir deb taxmin qiladi. Rasional model xalqaro munosabatlarning realistik maktabi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunga ko'ra davlatlar o'z manfaatlarini va kuchlar muvozanati mantig'iga asoslanib harakat qiladi[9]. Eron kontekstida bu yondashuv bizga, masalan, uning yadroviy siyosati yoki mintaqaviy

tashabbuslarini rejim xavfsizligini ta'minlash va uning strategik mavqeini mustahkamlash uchun rasional asosli harakatlar sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi[10].

Shu bilan birga, rasional model tanqidchilari uni qo'llashda bir qator cheklovlar borligini ta'kidlaydi. Birinchidan, real siyosat doim ham "to'liq ma'lumot" bazasiga ega bo'lmaydi, aksincha, qarorlar noaniqlik va ishonchli ma'lumotlar tanqisligi sharoitida qabul qilinadi, bu esa oqibatlarni oldindan sof rasional holda ko'rish imkonini qiyinlashtiradi. Ikkinchidan, rasionallik tushunchasining o'zi universal emas: u qadriyatlar tizimlari va mafkura manfaatlarni idrok etishga ta'sir qilishi mumkin. Eron misolida bu ayniqsa muhimdir, chunki G'arbga nisbatan jiddiy e'tiroz, inqilobiy kayfiyat Islom Respublikasining mafkuraviy ustunlari hisoblanadi, bu esa doim ham klassik "sovuqqonlik bilan ish tutish" modeliga mos kelmaydigan xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, Eron ko'pincha G'arb tahlilchilari tomonidan "irrasional va oldindan aytib bo'lmaydigan" aktor sifatida qabul qilinadi, uning xatti-harakati radikal mafkuraviy tamoyillar va noaniq qaror qabul qilish mexanizmlari bilan izohlanadi[11:184]. Bu esa, qadriyat va mafkuraviy motivlarni e'tiborga olmaydigan sof rasionalistik yondashuv Eron tashqi siyosatini to'liq tushuntira olmasligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, rasional model boshlang'ich nuqta sifatida foydadan holi emas: u davlatning maqsad va manfaatlariga urg'u beradi; bu maqsad va manfaatlar Tehron tashqi siyosatida yaqqol namoyon bo'ladi (masalan, milliy xavfsizlik, iqtisodiy foyda, mintaqaviy ta'sir).

Byurokratik model. Rasionalistik modeldan farqli o'laroq, byurokratik model (G.Allisonning "hukumat siyosati" modeli) tashqi siyosatni davlat ichidagi turli ishtirokchilar o'rtasidagi kurash va muzokaralar natijasi sifatida talqin etadi. Bu o'rinda davlat monolit, ya'ni yaxlit emas, balki har biri o'z manfaat va qadriyatlariga ega bo'lgan ko'plab muassasa, guruh va elitalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Byurokratik siyosat doirasida qarorlar hukumat apparatidagi asosiy ishtirokchilar o'rtasidagi raqobat va murosaga kelish orqali shakllantiriladi. Turli institutlar – Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, maxsus xizmatlar, Milliy xavfsizlik kengashi, Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi (IRQC) va boshqalar – tashqi siyosatga muqobil yondashuvlarni ilgari surishlari mumkin, bu yondashuvlar ularining institusional ustuvorliklarini aks ettiradi[12,13]. Natijada yuzaga keladigan siyosat, mohiyatan, byurokratik "og'irliklarning" vektor yig'indisi bo'lib qoladi, har bir muassasa o'z gapini o'tkazishga harakat qiladi.

Eron Islom Respublikasining o'ziga xos hokimiyat tuzilmasini hisobga olgan holda byurokratik modelni bu davlatga qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, Eron siyosiy tizimi yuksak hokimiyatga ega bo'lgan oliy rahbarning mavjudligi bilan xarakterlanadi, bu esa, markazlashgan qarorlar qabul qilinishi mumkin degan tasavvur tug'dirishi va byurokratik oldi-berdining ahamiyatini shubha ostiga qo'yishi mumkin. Darhaqiqat, rasman, tashqi siyosat va xavfsizlik kabi strategik masalalarda yakuniy so'zni oyatulloh Ali Xominaiy aytadi. Bunday

sharoitda, yakuniy hakamning (Xominaiy) mavjudligi go'yo byurokratik modelni ahamiyatsiz qiladi, elitaning raqobati bitta rahbarning irodasi bilan chippakka chiqadi, degan gipoteza yuzaga kelishi mumkin. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy rahbarning markaziy rolga qaramay, ichki kelishmovchiliklar va koalitsiyalar Eronning tashqi siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bir qator tahlilchilar Tehronning 2000-yillarda yadroviy siyosatdagi o'zgarishini faqat bitta prezidentning (Mahmud Ahmadinajod) pozitsiyasi bilan izohlab bo'lmashligini ta'kidlaydilar. Mamlakatning xatti-harakatlariga turli markazlar – oliy rahbar, prezident, IRQC, Milliy xavfsizlik oliy kengashi va Eron atom energiyasi tashkiloti o'rtasidagi kuchlar muvozanatining o'zgarishi ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tuzilmalarning har biri koalitsiyalar tuzish yoki qarama-qarshiliklarga kirishish orqali qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatishga intildi va rejim ichidagi alyans, ya'ni ittifoqlarning o'zgarishi tashqi siyosatda o'zgarishga olib keldi.

Shunday qilib, byurokratik model kuchli markazlashtiruvchi shaxs mavjudligiga qaramay, Eron siyosatini tushuntirish uchun ma'lum ahamiyatga ega. Bu Eron siyosatining fraksiyachilik va institusional plyuralizmini hisobga olishga imkon beradi. Darhaqiqat, Eronda tashqi siyosatni ishlab chiqadigan yagona markaz mavjud emas, chunki qaror qabul qilish jarayoni turli organ va shaxslar o'rtasida aniq taqsimlanmagan. Turli muassasa va guruhlar – Tashqi ishlar vazirligidagi mo'tadil texnokratlardan tortib to IRQCdagi mafkuraviy jihatdan jangari harbiy xizmatchilargacha –tashqi siyosatdagi ustuvorlikni turlicha talqin qilishi mumkin. Eron tashqi siyosati nima uchun ba'zan murosasozday, ba'zan izchil emasdan ko'rinishini aynan byurokratik model izohlab bera oladi: bu bitta, oqilona rahbarning irodasini so'zsiz bajarish emas, balki tashqi siyosat bir nechta aktorlarning o'zaro ta'siri natijasidir.

Ushbu modelni Eronga nisbatan qo'llashni tanqidiy tahlil qilish uning kamchiligini ham hisobga olishni talab qiladi. Ba'zi tadqiqotchilar AQSh misolida ishlab chiqilgan klassik byurokratik model Eron teokratik tizimining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olmasligini ta'kidlaydi, chunki bu erda hokimiyat bitta ruhoni rahbar va kichik doiradagi ishonchli a'yonlar qo'lida yuqori darajada jamlangan. Shunga qaramay, oliy rahbarning ustunligi sharoitida ham, a'yonlar turli institutlarning ma'lumotlari va yordamiga tayanadi va ba'zan ular o'rtasida hakam vazifasini bajaradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayniqsa strategik maqsadlarga erishish taktikasi haqida gap ketganda muassasalar o'rtasida raqobat mavjud (masalan, Tashqi ishlar vazirligi va IRQC orasida). Shunday qilib, byurokratik yondashuv tahlilni boyitadi, bu esa Eron tashqi siyosatini shakllantiradigan ichki ziddiyatlar va ta'sir muvozanatini aniqlash imkonini beradi.

Tashkiliy jarayon modeli. G.Allison asarlari bilan bog'liq tarzda paydo bo'lgan yana bir yondashuv tashkiliy jarayon modelidir (Allisonning II modeli). Ushbu model davlat tashkilotlari ishiga singib ketgan standart proseduralar va zerikarli tartiblardan tashkil topadigan siyosatni nazarda tutadi[14:114]. Hukumat har biri yuqoridan belgilangan qoidalarga muvofiq ishlaydigan

va o'zi uchun odatga aylangan amaliyotlarni (Standard Operating Procedures) bajaradigan tashkilotlar konglomerati sifatida qaraladi. Ushbu modeldagi tashqi siyosat qarorlari rahbarlarning ongli tanlovi (rasional modeldagi kabi) yoki muzokaralar natijasi (byurokratik modeldagi kabi) emas, balki mavjud proseduralarning natijasidir. Sodda qilib aytganda, har bir muassasa tashqi ziddiyatlarga odatiy tarzda, ko'rsatmalar va to'plangan tajribaga muvofiq javob beradi va yig'indi natija hukumat siyosatida namoyon bo'ladi.

Tashkiliy jarayon modelini Eronga nisbatan qo'llash biz uchun qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi institusional normalar va an'analarga e'tibor qaratish imkonini beradi. Masalan, Eron Tashqi ishlar vazirligi muayyan diplomatik madaniyatga ega bo'lib, bu madaniyat shoh davrida boshlangna diplomatik korpusga borib taqaladi va xalqaro voqea-hodisalarga javob berish uchun o'z protokollariga ega bo'lsa, ehtimol. Xuddi shu kabi Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi ham o'nlab yillar davomida deyarli avtomatik ravishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan muayyan harakatlar modellarini ishlab chiqqan, bu Yaqin Sharqdagi ittifoqchi guruhlarini qo'llab-quvvatlash bo'ladimi yoki harbiy tahdidlarga javob berishmi – farqi yo'q. Tashkiliy amaliyotlarning bunday inersion holati prezidentlar yoki hukumatlardagi o'zgarishlarga qaramay, Eron tashqi siyosatining uzluksizligini qisman izohlab beradi: institutlar yuqoridan belgilangan algoritmlarga muvofiq ishlashda davom etmoqda.

Biroq, bu model sof holatda ayrim kamchiliklarga ham ega. Agar bu modelga qat'iy rioya qilib, markaziy rahbarlarga passiv rol ajratilsa, Eron tashqi siyosatining yangi paydo bo'layotgan tashqi sharoitlarga javoban keskin o'zgarishini (masalan, Xotamiyning G'arb bilan munosabatni yumshatishga o'tishi yoki Ahmadinajodning qat'iy yo'nalishini) izohlash qiyin bo'ladi[15:394]. Real voqelikda oliy rahbariyat standart proseduralarni qayta ko'rib chiqishga qodir. Shunga qaramay, tashkiliy inersiya elementi mavjud. Masalan, tanqidchilar kuchli byurokratlashuv tashqi siyosatning moslashuvchanligi va ijodkorligini pasaytirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Bir qator institutlar juda sust bo'lgan Eronda bu yaqqol ko'rinib turibdi: qaror qabul qilish ba'zan sansolarlik tufayli sekinlashadi va inqirozlarga nisbatan javoblar eski qolipga mos bo'ladi. Umuman olganda, tashkiliy jarayon modeli foydalidir, zero u bizga tashqi siyosat nafaqat rahbarlarning qarorlari, balki, barcha tartib-qoida va cheklovlari bilan ish yuritadigan apparatning faoliyati ekanini eslatib turadi.

Konstruktivistik yondashuv. Rasional va proseduraviy modellardan farqli o'laroq, konstruktivistik yondashuv tashqi siyosatda g'oyalar, qadriyatlar va o'ziga xosliklarning roliga qaratilgan[16:58]. Konstruktivizm nuqtai nazariga ko'ra, davlatning tashqi siyosatdagi xatti-harakati nafaqat ob'ektiv moddiy omillar, balki ijtimoiy jihatdan shakllangan manfaatlar va atrofdagi dunyo haqidagi tasavvurlar bilan ham belgilanadi. Konstruktivistik tahlil Eronga

nisbatan qo'llanilganda, Islom inqilobiy mafkurasi, tarixiy narrativlar va mamlakatning tashqi siyosatdagi imidjining ta'sirini ta'kidlaydi[17,18,19].

Eron Islom Respublikasi tashkil topganidan beri o'zini noyob mafkuraviy aktor sifatida namoyon etib kelmoqda, uning tashqi siyosati asosan inqilobiy tamoyillar – anti-imperializm, Islom inqilobini eksport qilish, mazlum musulmonlarni himoya qilish (ummat g'oyasi) va hokazolar bilan belgilanadi. Konstruktivistik yondashuv bizga Eron siyosatining tor doirada belgilangan rasionallikka mos kelmaydigan jihatlarini tushuntirishga imkon beradi. Masalan, Tehronning Isroilga nisbatan shafqatsiz dushmanligini “bosqinchi sionist rejim” mafkuraviy postulat prizmasi orqali tushunish mumkin - bu dushman qiyofasi Eronning siyosiy munozarasida chuqur ildiz otgan va oyatulloh Xumayniy davridan qolgan diniy va siyosiy e'tiqodlarga asoslangan. Tadqiqotchi E.E.Epshteyn ta'kidlaganidek, Eron tashqi siyosatining mafkuraviy asoslari Imom Xomayniy ta'limotiga ko'ra, Isroilning yo'q qilinishi muqarrarligi postulatini o'z ichiga oladi[20:135]. Bu misol qadriyat tizimlarining tashqi siyosatga qanday bevosita ta'sir qilishini yorqin ko'rsatadi.

Kengroq fikr yuritganda konstruktivistik tahlil Eronning milliy o'ziga xosligi va uning tashqi siyosatga ta'siriga diqqat qaratadi. Eron elitasi o'z mamlakatini buyuk fors sivilizasiyasining vorisi va shia islomining tayanchi sifatida idrok etadi. Bu o'ziga xoslik omillari, Tehronning fikriga ko'ra, Eron xalqaro maydonda o'ynashi lozim bo'lgan rollarni yaratadi – masalan, G'arbparast bosimga nisbatan “qarshilik o'qi”ning rahbari roli, shialarning va umuman olganda, barcha mazlum musulmonlarning himoyachisi roli va h.k. Konstruktivistik nuqtai nazardan, Eronning boshqa davlatlar va o'zini idrok etishi uning siyosat yo'nalishini shakllantiradi. Karimifard va boshqalar ta'kidlaganidek, Eronning tashqi siyosat binosi “eroniylik”, islom hamda shialik [21] kabi konstruksiyalarga asoslangan. Boshqacha qilib aytganda, mafkura va o'ziga xoslik davlat manfaatlari va dushmanlarini aniqlaydigan mezon yaratadi.

Eronga nisbatan qo'llaniladigan konstruktivistik yondashuvni tanqidiy o'rganish quyidagilarni aniqlashga imkon beradi: Eron rahbariyati motivlarining naqadar chuqurligini mafkurani hisobga olmasdan tushunish qiyin; ayni paytda faqat g'oyalarga e'tibor qaratish moddiy omillar va oqilona hisob-kitoblar ahamiyatini pasaytirishi ehtimol. Eron inqilobiy tamoyillarga amal qilsa-da, u real tahdidlar va imkoniyatlarga ham javob axtarmoqda. Masalan, panislomiy birdamlikni targ'ib qilish bilan birga, Tehron strategik manfaatlar yo'lida xristian bo'lmagan va hatto mafkuraviy jihatdan begona rejimlar (Xitoy, Rossiya) bilan hamkorlik qilishga tayyor[22]. Shunday qilib, konstruktivizm mafkuraviy asoslar haqida muhim tushunchalar beradi, ammo manzara mukammal bo'lmog'i uchun pragmatik mulohazalar tahlili bilan to'ldirilishi zarur.

Rol nazariyasi. Bu nazariya (role theory) tashqi siyosat tahliliga nisbatan o'ziga xos yondashuv bo'lib, xalqaro munosabatlar tizimida davlat o'z zimmasiga oladigan rollarga e'tibor

qaratadi[23]. K.Xolsti tomonidan ishlab chiqilgan “milliy rol konsepsiyasi”[24:235] tushunchasiga muvofiq rahbarlar va elitalar o‘z davlatining chet eldagi missiyasi va maqsadi haqida tasavvur hosil qilishini va bu o‘zini o‘zi anglash tashqi siyosatni boshqarar ekan. Eron misolida bir nechta aniq rol yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchidan, Eron Islom Respublikasi o‘zini islom dunyosining inqilobiy avangardi – 1979-yilgi mafkuraning merosi sifatida ko‘radi. Ikkinchidan, Eron Yaqin Sharq va musulmon dunyosida mintaqaviy etakchi bo‘lishga intiladi, boshqa kuch markazlari bilan raqobatlashadi (masalan, musulmon ummasiga etakchilik qilish uchun Saudiya Arabistoni bilan, mintaqaviy ta’sir ko‘rsatish uchun Turkiya bilan). Uchinchidan, tarixiy va madaniy omillar Eronni fors tilida so‘zlashuvchi va shia jamoalarining himoyachisi rolini o‘ynashga undaydi (masalan, Tojikiston bilan fors madaniyatiga asoslangan maxsus munosabatlari, butun mintaqadagi shia jamoalari bilan munosabatlar va h.k.).

Rol nazariyasi Eronning ayrim harakatlaridagi izchillikni uning o‘zi tanlagan rolni bajarish istagi prizmasi orqali izohlashga yordam beradi. Shunday qilib, Tehronning Suriya mojarosidagi pozitsiyasi (Asad rejimini faol qo‘llab-quvvatlash) nafaqat strategik manfaatlar bilan, balki uning rolga asoslangan yondashuvi bilan ham izohlanadi – Eron “qarshilik o‘qi” himoyachisi va AQSh hamda Isroilga qarshi kurashda ittifoqchi sifatida, bu uning inqilobiy, anti-imperialistik davlat sifatidagi imidjiga mos kelgan edi. Xuddi shunday, Eronning yumshoq kuchi – Markaziy Osiyoda madaniy diplomatiya (fors tili, madaniyati va hamkorlik dasturlarini tarqatish orqali) – Eronning mintaqadagi tarixiy sivilizasiya markazi sifatidagi rolini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi E.Vastnidge ta’kidlashicha, SSSR qulaganidan so‘ng, Markaziy Osiyoda Eron o‘zini go‘yo “status-kvo kuchi” va ishonchli sherik sifatida ko‘rsatishga intildi, bu uning mafkurani inqilobiy eksportchisi sifatidagi imidjiga zid keldi. Bu pragmatik o‘zini o‘zi taqdim etish Eronning mas’uliyatli mintaqaviy o‘yinchi sifatidagi rolga xizmat qiladi, u o‘z ta’sirini inqilob eksporti orqali emas, balki madaniy va tarixiy aloqalar orqali kengaytirishga intiladi.

Rol nazariyasini Eronga qo‘llashning tanqidiy jihati shundaki, e’lon qilingan rollar har doim ham davlatning haqiqiy imkoniyatlariga mos kelmaydi. Eron o‘zini islomning etakchisi deb hisoblashi mumkin, ammo ko‘plab sunniy mamlakatlar bu rolni inkor etadi; Eron o‘zini mazlumlarning himoyachisi sifatida ko‘rsatadi, biroq bu raqobatchilarning qarshiligiga duch keladi va boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashadi degan ayblovlarga sabab bo‘ladi. Shunga qaramay, rol tushunchalarini ko‘rib chiqish Eron tashqi siyosatining ritorikasi va uzoq muddatli maqsadlarini tushunish uchun ahamiyatlidir. Eron o‘ynashni istagan rol ko‘pincha rahbarlarning nutqlarida va siyosiy hujjatlarda ochiqchasiga e’lon qilinadi va bu nutqni tahlil qilish ko‘rsatilgan rollarga mafkuraviy sadoqat darajasini ochib beradi.

Diskursiv tahlil. Diskursiv yondashuv konstruktivizm va rol nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq, ammo tashqi siyosatda til, ritorika va narrativlarni o‘rganishga alohida e’tibor

qaratadi[25:238]. Eron tashqi siyosatining diskursiv tahlili rasmiy bayonotlar, tashviqot shiorlari, rahbarlarning nutqlari, Tashqi ishlar vazirligining matbuot relizlari va boshqalarni o'rganishni o'z ichiga oladi; bularning bari qanday qilib dunyoga munosabat shakllanayotgani va tashqi siyosat harakatlari asoslanishini tushunish uchun zarurdir. Eron misolida bunday tahlil bizga tashqi siyosatni shakllantiruvchi asosiy mafkuraviy tushunchalarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, Imom Xumayni tomonidan shakllantirilgan, "Na Sharq, na G'arb – Islom Respublikasi" shiori sovuq urush davrida Eronning ikkala superdavlatdan mustaqillikka intilishini aks ettiruvchi asosiy tamoyilga aylandi. Eron rahbariyatining hozirgi paytdagi nuqtai nazariga ko'ra Amerika Qo'shma Shtatlari an'anaviy ravishda "Buyuk shayton" deb, Isroil davlati "yo'q qilinishi kerak bo'lgan sionistik rejim" deb ataladi; aksincha, Eron o'zini huddi adolat va islom birdamligi qal'asi sifatida tasvirlaydi. Bunday ritorik konstruksiyalar mafkurani aks ettirish bilan bir qatorda ichki va xorijdagi tarafdorlar orasida tashqi siyosatni legitimlashtirish, ya'ni qonuniylashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Diskurs tahlilini qo'llash orqali tadqiqotchilar Eron yaratgan dushman va ittifoqchi haqidagi tasavvurlarni tushunishi mumkin. Masalan, Xumayniy davridan qolgan "mazlumlardan va zolimlardan" (mostaz'afin i mostakbirin) konsepsiyasi hatto Eron Konstitutsiyasida ham mustahkamlangan – 152-modda barcha musulmonlar huquqlarini himoya qilishni tashqi siyosatning asoslaridan biri deb e'lon qiladi, 154-modda esa butun dunyo bo'ylab zolimlarga qarshi kurashni qo'llab-quvvatlashini e'lon qiladi[26]. Ushbu diskursiv tahlil shuni ko'rsatadiki, Eron o'zining tashqi siyosatini global ozodlik missiyasi doirasida joylashtiradi va shu bilan, masalan, turli mamlakatlardagi falastinliklar, shia jangarilari yoki muxolifat harakatlarini qo'llab-quvvatlashini oqlaydi. Ichki makonda bu diskurs aholini Eron global yovuzlikka qarshi kurashayotgani va ilohiy kuchlar tomonidan yuklatilgan missiyani bajarayotgani haqidagi fikr atrofida birlashtiradi.

Diskursiv yondashuvni tanqidiy baholashda shuni ta'kidlash kerakki, ritorika har doim ham siyosat haqiqatiga mos kelmaydi. Diskurs pragmatik qadamlar uchun niqob bo'lib xizmat qilishi mumkin. Eron diplomatiyasi ba'zan moslashuvchanlik va murosaga qodir, bu esa uning rasman e'lon qilingan murosasizlik mavqeiga zid keladi (masalan, yadroviy kelishuv bo'yicha muzokaralar, unda Qo'shma Shtatlarga nisbatan ishonchsizlikning an'anaviy ritorikasiga qaramay, Eron 2015-yilda muloqotga kirishdi va kelishuvga erishdi). Shunga qaramay, munozarani e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi: hech bo'lmaganda, u Eron rahbariyati uchun mumkin bo'lgan chegaralarni belgilaydi. Bayon qilingan tamoyillardan haddan tashqari keskin og'ish rejimining ichki qonuniyligiga putur etkazishi mumkin. Shuning uchun, Eronning rasmiy tilini tahlil qilish bizga rahbariyatning pragmatizmga qay darajada og'ishiga ruxsat berilganligini va mafkuraviy "qizil chiziqlar" qayerda ekanligini taxmin qilish imkonini beradi.

Xulosa. Nazariy yondashuvlarning rasional aktordan tortib, to diskurs tahliligacha bo'lgan xilma-xilligi Eron tashqi siyosatining ko'p qirrali xususiyatini aks ettiradi. Rasionalistik model Eron davlatining maqsadga yo'naltirilgan oqilona siyosatidan darak beradi, ammo uning manfaatlari tayangan mafkuraviy asoslarni e'tibordan chetda qoldiradi. Byurokratik va tashkiliy modellar qaror qabul qilish jarayonining ichki mexanizmlarini ochib beradi, institutlar o'rtasidagi kurash va odatiy amaliyotlar orqali siyosat qanday shakllanishini tushunish uchun bu yondashuv muhim, biroq Eronning noyob hokimiyat tuzilishini hisobga olishda zaiflik qiladi. Konstruktivizm va diskurs tahlili, o'z navbatida, Eron tashqi siyosatining qadriyatlarga tayanadigan va mafkuraviy asoslariga urg'u beradi, lekin moddiy voqelikdan ajralgan holda, mafkuraning rolini haddan oshirib baholaydi. Rol nazariyasi mafkurani amaliy qadamlar bilan bog'lash orqali Eron o'z oldiga qo'ygan missiya hamda vazifalarni ko'rsatib, manzarani to'ldiradi.

Eron uchun ham moddiy-rasional, ham mafkuraviy omillarni hisobga olgan holda kombinasiyalashgan, ya'ni birlashtirilgan yondashuv tavsiya etiladi. Sintezga moyillik akademik adabiyotlarda – masalan, tizimli va ichki o'zgaruvchilarni birlashtirgan tashqi siyosat nazariyalari orqali yaqqol ko'rinib turibdi. Keyingi bobda tadqiqotimiz uchun asosiy nazariya sifatida neorealist (strukturaviy realist) maktabining tanlanishi oqlanadi. Neorealizm yuqorida muhokama qilingan ko'plab jihatlarni birlashtirishga imkon beradi: u anarxik xalqaro tizimning roli va kuchlar taqsimotiga e'tibor qaratadi, shu bilan birga davlatlar o'z xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi ichki parametrlarda farq qilishini tan oladi. Bu yondashuv Eronning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatini tahlil qilish uchun eng samarali ko'rinadi, bu erda geosiyosiy manfaatlar va kuchlar muvozanati birinchi o'ringa chiqadi, ammo mafkura ta'sirini va Eron siyosatining ichki xususiyatlarini butunlay yo'q qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allison, Graham T. *Essence of Decision: Explaining the Cuban Missile Crisis*. Little, Brown and Company (1971). Дегтярев, Андрей Алексеевич. Методологические подходы и концептуальные модели в интерпретации политических решений (II). Полис: Политические исследования 1 (2003): 159-170.
2. Glaser, Charles L. *Rational theory of international politics: The logic of competition and cooperation*. Princeton University Press, 2010.
3. Allison, Graham T., and Morton H. Halperin. *Bureaucratic politics: A paradigm and some policy implications*. *World politics* 24, no. S1 (1972): 40-79.
4. Welch, David A. *The organizational process and bureaucratic politics paradigms: retrospect and prospect*. *International Security* 17, no. 2 (1992): 112-146.

5. Павленко, Ольга Вячеславовна. Конструктивистский подход к исследованию международных отношений: возможности и пределы. Вестник РГГУ. Серия: Политология. История. Международные отношения 6 (149) (2015): 53-67.
6. Harnisch, Sebastian, Cornelia Frank, and Hanns W. Maull. *Role theory in international relations*. London: Routledge, 2011.
7. Milliken, Jennifer. The study of discourse in international relations: A critique of research and methods. *European journal of international relations* 5, no. 2 (1999): 225-254.
8. Allison, Graham T., and Philip Zelikow. 1999. *Essence of Decision: Explaining the Cuban Missile Crisis*. 2nd ed. New York: Longman.
9. Ayyad, Mona Abdel Raouf Hassan. The Common Denominator: A Critical Review of Theoretical Approaches to Foreign Policy Analysis. (2024): 135-186 p. https://esalexu.journals.ekb.eg/article_334215_03337a76627b742c463e49d9e5d26540.pdf
10. Byman, Daniel, Shahram Chubin, Anoushiravan Ehteshami, and Jerrold D. Green. 2001. *Iran's Security Policy in the Post-Revolutionary Era*. Santa Monica, CA: RAND. Takeyh, Ray. 2009. *Guardians of the Revolution: Iran and the World in the Age of the Ayatollahs*. New York: Oxford University Press.
11. Constitution of the Islamic Republic of Iran. 1989 (as amended). Official translation. Luciano Zaccara, "Iran's Permanent Quest for Regional Power Status" in *Diplomatic Strategies of Nations in the Global South*, ed. Jacqueline Braveboy-Wagner (New York: Palgrave Macmillan, 2016), 184.
12. Ostovar, Afshon. 2016. *Vanguard of the Imam: Religion, Politics, and Iran's Revolutionary Guards*. New York: Oxford University Press.
13. Wehrey, Frederic, Jerrold D. Green, Brian Nichiporuk, Alireza Nader, and Lydia Hansell. 2009. *The Rise of the Pasdaran: Assessing the Domestic Roles of Iran's Islamic Revolutionary Guards Corps*. Santa Monica, CA: RAND.
14. Welch, David A. The organizational process and bureaucratic politics paradigms: retrospect and prospect. *International Security* 17, no. 2 (1992): 112-146.
15. Maloney, Suzanne. 2015. *Iran's Political Economy since the Revolution*. New York: Cambridge University Press. 581 p.
16. Павленко, Ольга Вячеславовна. "Конструктивистский подход к исследованию международных отношений: возможности и пределы." Вестник РГГУ. Серия: Политология. История. Международные отношения 6 (149) (2015): 53-67.
17. Wendt, Alexander. 1999. *Social Theory of International Politics*. Cambridge: Cambridge University Press. 421p.

18. Katzenstein, Peter J., ed. 1996. *The Culture of National Security: Norms and Identity in World Politics*. New York: Columbia University Press. 560 p.
19. Hopf, Ted. 2002. *Social Construction of International Politics: Identities and Foreign Policies, Moscow, 1955–1999*. Ithaca, NY: Cornell University Press. 299 p.
20. Эпштейн, Ефим Евгеньевич. От юдофобии к антисиионизму: проблемы легитимности существования государства Израиль. Политическая экспертиза: ПОЛИТЭКС 2, no. 3 (2006): 131-140.
21. Hossein Karimifard, *Constructivism, National Identity and Foreign Policy of the Islamic Republic of Iran*. Asian Social Science 8, no. 2 (2012): 239 p
22. Esfandiary, Dina & Ariane Tabatabai. 2018. *Triple Axis: Iran's Relations with Russia and China*. London and New York, IB Tauris. 256 p.
23. Harnisch, Sebastian, Cornelia Frank, and Hanns W. Maull. *Role theory in international relations*. London: Routledge, 2011.
24. Holsti, Kalevi J. National role conceptions in the study of foreign policy. *International studies quarterly* 14, no. 3 (1970): 233-309.
25. Milliken, Jennifer. "The study of discourse in international relations: A critique of research and methods." *European journal of international relations* 5, no. 2 (1999): 225-254.
26. Ayatollah Ali Khamenei: Supreme Leader of the Islamic Republic of Iran. Source of internet. URL: <https://www.unitedagainstnucleariran.com/supreme-leader/background-role-of-supreme-leader>
27. Kuchkarov, T. (2025). Relations between the Central Asian Khanates and Iran: dynamics of diplomacy, rivalry, and cooperation in the 16th–19th centuries. *Oriental Journal of Social Sciences*, 5(11), 114–127. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-05-11-14>